

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNI HUSNIXATGA O'RGATISH

Sobirova Mohidilxon Ilhomovna

Andijon viloyati Izboskan tumani

12-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'quvchilar husnixatining chiroyliligi va yozuv daftarining talab darajasida tutilishini o'qituvchi tomonidan tez-tez tekshirib turilishi, chiroyli yozuvlar solishtirilib, rag'batlantirib borilishi o'quvchilar husnixatining chiroyli bo'lishiga, tozalik hamda tartibga rioya qilishlariga sezilarli ta'sir etishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: husnixat, chiroyli yozuv, ehtiyoj, rag'latlantirish, tozalik, tartib, tarbiya, qiziqtirish, shug'ullanish.

Inson o'z fikrini ikki usul orqali boshqalarga yetkazib beradi: og'zaki va yozma. Og'zaki usul, shubhasiz nutq tovushlari orqali amalga oshirilsa, yozma nutq turli belgilar bilan yozuvda aks etadi. O'z navbatida, yozma nutqning makon va zamon tanlamasligi uning asosiy ustun tarafidir. Shu jihardan ham biz doimo yozuvga ehtiyoj sezamiz. Jamiyatning ana shu ehtiyojini qondirish uchun ham o'quvchilarga boshlang'ich sinfdan boshlab husnixat darslari o'tiladi. Har bir sohada bo'lgani kabi bugungi kunda husnixatni o'rgatishning ham o'ziga yarasha muammolari mavjud. Hozirda to'liq yechimini topmayotgan masalalardan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarining partada to'g'ri o'tirish, qad-qomatni to'g'ri tutish qoidalariga amal qilmasligi, amal qilish muddatining davomiy emasligi yoki ularni bilmasligidir. Bu qoidalar haligacha aksariyat o'quvchilar uchun odat tusiga aylanmagan, chunki maktabgacha bo'lgan davrda bolaning harakatlariga ortiqcha cheklovlar qo'yilmaydi. U o'zi xohlaganicha, xohlagan paytida erkin harakatlanadi. Shu sabab uzoq vaqt qad-qomatni tik va to'g'ri ushlar ular uchun noqulaylik tug'diradi. Natijada, o'quvchilar salomatligida bir necha nuqsonlar yuzaga kela boshlaydi. Qoidalarni o'rgatgan bilan ular odat tusiga aylanmasa, davomiy bo'lmasa, faqat shu qoidalarga amal qilish haqida gap ketgandagina ularga rioya qilinsa, albatta, bu holatdan yaxshi natija kutish xatolikdir.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini husnixatga o'rgatishning o'zi murakkab jarayon: bunda o'quvchidan ham, o'qituvchidan ham alohida kuch va e'tibor talab qilinadi. Ayniqsa, endigina maktab va undagi tartib-qoidalar bilan tanishayotgan o'quvchilar ruhiyati uchun bu katta bosimdir. Biroq o'quvchilarni husnixatga o'rgatishning o'zi kamlik qiladi: o'qituvchi darsni o'quvchilarning sevimli mashg'ulotiga aylantirishi, ilm olishga bo'lgan rag'batni hosil qila olishi kerak. Buning uchun esa, albatta, materiallarni to'g'ri tanlay olish, darsni to'g'ri tashkil etish ko'nikmasiga ega bo'lish zarur.

Boshlang'ich ta'limning samaradorligi o'quvchilarda o'ziga xos tarzda tarkib topgan ta'limiy faoliyatning shakllanish darajasiga bog'liq. Bunday faoliyat nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida, o'qituvchi rahbarligida shakllanadi va muntazam ravishda shakllanib boradi.

Boshlang'ich ta'limning samaradorligini ta'minlashda o'qituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik kasb mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi barcha pedagogik-psixologik vositalarni qo'llagan holda kichik maktab

yoshidagi o'quvchilarda yaxlit tarzda o'quv faoliyatini shakllantira olishi ekrakligi bugungi kunda barchaga ayon. Bu o'quv faoliyati fonetik-grafik, grammatik, orfografik va orfoepik tushunchalar ustida ishlashda shakllansa, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqidagi nuqsonlar yo'qola boradi.

O'quvchilar ilk bor maktabga qabul qilinganlaridan boshlab ularning og'zaki va yozma nutqiga e'tibor kuchaytiriladi. Dastlabki sinflardan boshlab o'quvchilarning husnixat malakalari ustida ishlash, ularga yozuv qoidalarini o'rgatib borish, alifbodagi har bir harfni yozuvda to'g'ri va aniq ifodalab berishga o'rgatish boshlang'ich sinf o'qituvchisidan juda katta mas'uliyatni talab qiladi.

Ma'lumki, insoniyat tomonidan yaratilgan eng katta kashfiyotlardan biri bu - yozuvdir. Yozuv inson tomonidan hayotiy ehtiyojlar va zaruriyatlar tufayli o'ylab topildi va insoniyatning o'ziga, jamiyatning mislsiz taraqqiyotiga xizmat qilib kelmoqda. Yozuv fikrni tovush yetmaydigan joy va kelajakka yetkazish ehtiyojidan kelib chiqqan. Shunday qilib, yozuv insoniyat tarixini kelajak avlodga yetkazib berishdek juda katta vazifani bajarib kelayotgan burok ne'matdir.

“Savod o'rgatishning ilk bosqichida o'qituvchi oldida so'zlarning yozuvda ifodalanishi, harf va tovush haqida tushuncha, so'zni bo'g'in va tovushlarga ajratish, bog'lanishli nutqni o'stirish, boshlang'ich orfografiya qoidalari xususida tasavvurni rivojlantirish, umuman, ona tilining go'zalligi va rang-barangligini anglatishdek muhim vazifa turadi”.²

Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida husnixat darslariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- Yozuv vaqtida gigiyenik malakalarni (to'g'ri o'tirish, yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish) hosil qilish.
- Ikki chiziqli daftarda chiroyli yozuv qoidalariga rioya qilgan holda yozish malakalarini egallash.
- O'quvchilarning chamalash qobiliyatlarini o'stirish, harflarning balandligi va kengligini to'g'ri yozish.
- Kichik va bosh harflar guruhlarini asta-sekin murakkablashtirib borish tartibida yozish.
- So'z va kichik gaplarni ritmik yozish.

O'quvchilar husnixatining chiroyliligi va yozuv daftarining talab darajasida tutilishini o'qituvchi tomonidan tez-tez tekshirib turilishi, chiroyli yozuvlar solishtirilib, rag'batlantirib borilishi o'quvchilar husnixatining chiroyli bo'lishiga, tozalik hamda taptibga rioya qilishlariga sezilarli ta'sir etadi. Sinfda “Kimning xati chiroyli”, “Husnixatimni ko'ring, o'zingiz baho bering” burchaklari tashkil etilsa, chiroyli yozuvli daftarlarni namuna shaklda olib qo'yilsa, barcha o'quvchining chiroyli yozishga undaydi.

Chiroyli yozuv darslarida so'zlar, gaplar, matnlar yozish, ularning imlosini tekshirishi orfografik ziyraklikni asta-sekin shakllantira boradi, imlo qoidalarini puxta egallashlariga zamin yaratadi.

Bu ishlarning izchillikda amalga oshirilishi boshlang'ich ta'limda husnixat darslarining sifat va samaradorligini oshirish uchun muhim omil sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. G'ulomov M. Chiroyli yozuv malakasini shakllantirish. Toshkent: O'qituvchi, 1992.
3. G'ulomova H. va boshqalar. Birinchi sinfda ona tili darslari. Toshkent: O'qituvchi, 2009.